

“TIL” KONSEPTI LINGVOMADANIY TAFAKKUR IFODASI

Yuldashev Akmal Gulyamjanovich
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
professori, filologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. Mazkur maqolada TIL konseptining o'zbek va ingliz lingvomadaniy makonidagi semantik, pragmatik va madaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Xalq maqollari, frazeologik birliklar va badiiy misollar asosida Til konseptining ma'naviy, axloqiy, ijtimoiy va estetik qirralari yoritiladi.

Kalit so'zlar: konsept, lingvomadaniyat, frazeologiya, semantika, nutq madaniyati, milliy tafakkur.

Аннотация. В данной статье анализируются семантические, прагматические и культурные особенности концепта «Язык» в узбекском и английском лингвокультурном пространстве. На основе народных пословиц, фразеологических единиц и художественных примеров раскрываются духовные, нравственные, социальные и эстетические аспекты концепта «Язык».

Ключевые слова: концепт, лингвокультура, фразеология, семантика, культура речи, национальное мышление.

Annotation. This article analyzes the semantic, pragmatic, and cultural features of the concept of “Language” in Uzbek and English linguocultural space. Based on folk proverbs, phraseological units, and literary examples, the spiritual, moral, social, and aesthetic aspects of the concept of “Language” are revealed.

Key words: concept, linguoculture, phraseology, semantics, speech culture, national mentality.

Zamonaviy tilshunoslikda tilning antroposentrik mohiyatini tadqiq qilish kun tartibiga qo'yildi. Bunda asosiy e'tibor idrok va uning tilda verballashuvi haqidagi masalalarga qaratiladi. Antroposentrik paradigmaning yo'nalishlaridan biri kognitiv tilshunoslik til va tafakkur munosabatlarini o'rganadi. Mazkur yo'nalishda konsept inson tafakkuri va madaniyati bilan bog'liq holda ko'riladi. Konsept muayyan xalqning dunyoqarashi, qadriyatlar va ijtimoiy tajribasini o'zida mujassam etgan mental birlik sifatida ham talqin qilinadi. Shu nuqtai nazardan TIL konsepti nafaqat anatomik a'zo va kommunikatsiya vositasi, balki madaniy va axloqiy kategoriya ekanligi empirik siollar orqali ko'rib chiqiladi.

TIL konseptlarining tilda voqelanishini tadqiq qilishda manba sifatida “Hikmatnoma: O'zbek maqollarining izohli lug'ati”; “O'zbek tili frazeologik lug'ati” foydalanildi.

O'zbek xalq og'zaki ijodi, maqol va matallar, frazeologik birliklar hamda ingliz tilidagi barqaror birikmalar TIL konseptining ko'p qirrali tabiatini namoyon etishini quyidagi mavzuiy guruhlariga bo'lindi:

TIL – ma'naviy va ruhiy ta'sir vositasi: O'zbek xalq maqollarida tilning ta'sir kuchi juda yuqori baholanadi: *Tig' jarohati bitar, Til jarohati bitmas*. Bu yerda jismoniy jarohat bilan ruhiy jarohat qiyoslanib, so'zning inson qalbiga ta'siri kuchli ekani ta'kidlanadi. Demak, til – ruhiy ta'sir quroli. Shuningdek, *Til – qilichdan o'tkir* mazmuni ham tilning vayronkor kuchini anglatadi. Bu holat til konseptining ikki qirrali – yaratuvchi va vayron qiluvchi xususiyatini ko'rsatadi.

TIL – milliy o'zlik va vatanparvarlik ramzi: *Tilga ixtiyorsiz – Elga e'tiborsiz* degan mazmun til va millat tushunchalarining uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Til – milliy

identifikatsiya vositasi, xalq ruhiyatining asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Har bir millat o'z tili orqali o'z tarixi, madaniyati va ma'naviy merosini saqlaydi va avloddan avlodga yetkazadi. Shu jihatdan til konsepti milliy qadriyat sifatida namoyon bo'ladi.

TIL – axloqiy me'yor va nutq madaniyati: O'zbek xalq ijodida tilni tiyish, o'ylab gapirish, andisha qilish kabi tushunchalar muhim axloqiy talab sifatida qaraladi: *Foydasiz so'zni aytma, foydali so'zdan qaytma. Yurganda oyog'ingni ehtiyot qil, Gapirganda – tilingni. Og'iz bilan hamyonni yopiq tut.* Bu misollar TIL konsepti axloqiy nazorat bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi. Insonning ma'naviy darajasi uning nutq madaniyati orqali namoyon bo'ladi. *Tilini tiymoq, Tilini tishlamoq, Tili qisildi* kabi frazeologik birliklar, sabr va o'zini nazorat qilish tushunchalari bilan bog'liq. *Til(i)ni tiymoq* – biror fikrni aytishdan saqlanmoq, *til(i) kesildi* – bundan buyon biror fikrni boshqa aytolmaydigan bo'lib qolmoq kabi frazeologik birliklarda esa inson nojo'ya xarakati tufayli so'z erkini yo'qotishi nazarda tutilgan. *Til – qilichdan o'tkir* – Kishi jamiyatda yashar ekan, so'zlash odobiga nihoyatda qattiq rioya qilishi, hamma narsani gap deb gapiravermasligi, o'ylab gapirishi, bo'lar-bo'lmasga so'z qotmasligi, tilini tiyib yurishi zarur, aks holda boshiga balo orttiradi, o'ziga ziyon-zahmat orttiradi degan mazmun ifodalangan. *Tilingga kuydirgi chiqqur* – har xil gaplarni gapiravergan kishiga qarshi aytiladigan qarg'ish (odatda ayollar nutqida ishlatiladi). *Til tegizmoq – Til tegizildi* – sha'niga nomunosib, nohaq gap aytmoq.

TIL – ijtimoiy munosabat va kelishuv vositasi: Til insonlar o'rtasidagi munosabatlarni shakllantiruvchi asosiy omildir. Masalan: *Til topishmoq* – kelishuvga erishmoq, *til biriktirmoq* – yashirin kelishmoq, *tilini tushunmoq* – fikrni anglamoq, *til(lari) bir* – o'y-maqsadi mos, bir xil bu frazeologik birliklar, tilning kommunikatsiya, hamjihatlik va ijtimoiy birlikni ta'minlashdagi rolini ko'rsatadi. *Til(i) uzun bo'ldi – Til(i)ni uzun qilmoq* – har qancha gapirishga huquqli bo'lmoq. *Til(i) uzun I* – har qancha gapirsa, haqi bor. *Til(i) bir qarich bo'ldi – Til(i)ni bir qarich qilmoq* maqtanishga, gapirishga haqli bo'lmoq.

TIL – badiiylik va estetik qimmat: Til konsepti badiiy adabiyotda estetik qimmat kasb etadi. Jadid adabiyoti namoyondasi Abdulkamid Cho'lponning "*Sen tilga ipakdan ko'ylak kiygizding*" misrasi tilni go'zallik, nafosat va she'riyat ramzi sifatida talqin qiladi. Bu yerda til – insonning ichki dunyosi, his-tuyg'usi va estetik tafakkurini ifoda etuvchi vosita [1, 54].

TIL – fiziologik va psixologik holat ifodasi: Frazeologik birliklarda til insonning jismoniy va ruhiy holati bilan ham bog'lanadi: *Tilga kirmoq* – bolaning nutqqa ega bo'lishi, *Tildan qolmoq* – gapirish qobiliyatini yo'qotish, *Tilga kelmoq* – nutq tiklanishi. Bu misollar TIL konsepti biologik va psixologik jarayonlar bilan bog'liqligini ko'rsatadi. *Til(i) chiqdi* – (go'dakning) nutqqa ega bo'lmoq. *Tilga kirmoq* – (go'dak) nutqqa ega bo'lmoq. *Til(i) chuchuk* – ayrim tovushlarni talaffuz qilishi nuqsonli. *Tildan qolmoq – tildan qoldirmoq* – gapirish qobiliyatini yo'qotmoq. *Til(i) qotib qolgan* – tovush talaffuz qilishga, o'rga nishga layoqatsiz bo'lib qolmoq. *Til – suyaksiz. Tilning suyagi yo'q, Og'izning jiyagi yo'q. Filning iyagi yo'q, Tilning suyagi yo'q. Darvozasiz – og'iz, Suyaksiz – til. Til – bo'g'imsiz, O'y – tubsiz. Til ketidan ot bilan ham yetib bo'lmas. Oyoqqa kishan solib bo'ladi, Og'izga kishan solib bo'lmaydi. Tilga tirgak yo'q.*

TIL – ruhiy-psixologik holat: *Til(i) bormadi* – biror andisha-mulohaza bilan aytishni ma'qul ko'rmaslik. *Til(i) kesiq* – biror fikr ayta olmaydigan holatda. *Til(i) qisiq* – gapirmaslikka, e'tiroz bildirmaslikka majbur. *Til(i)ni tishlamoq* – o'zini gapirmaslikka majbur qilmoq. *Til(i)ni qismoq – Til(i) qisildi* – gapirmaslikka, e'tiroz bildirmaslikka majbur bo'lmoq.

TIL – kognitiv jarayon: *Tildan qo'yimaslik* – doim eslab, gapirib turmoq. *Tilga olmoq* – gapirmoq. *Til(i)dan tushmaslik* – nutqida doim aks etmoq, ta'kidlanmoq. *Til(i)ning uchida*

turmoq – bila turib, shu daqiqada xotirasida tiklab ayta olmaslik. *Til(i)ni topmoq* – fikr-o'yini, maqsadini bilib olib, shunga moslashib muomala qilmoq. *Til(i)ni tushunmoq* – fikr-maqsadini anglab yetmoq.

Bu misollar til konseptining universal xususiyatga ega ekanini, ya'ni turli madaniyatlarda o'xshash ma'naviy va ijtimoiy mazmuni aks ettirishini ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, TIL konsepti o'zbek tilida nafaqat nutq a'zosi, balki ma'naviy va ruhiy ta'sir vositasi, milliy qadriyat va identifikatsiya ramzi, axloqiy nazorat va nutq madaniyati ko'rsatkichi, ijtimoiy munosabat va kelishuv mexanizmi, badiiy va estetik ifoda vositasi, fiziologik va psixologik holat indikator sifatida talqin qilinadi. Demak, til inson tafakkuri va madaniyatining markaziy kategoriyalaridan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig'i. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyat-matbaa ijodiy uyi. 2015 – 152 b.
2. Hikmatnoma: O'zbek maqollarining izohli lug'ati. – T.: O'zbekiston Sovet Ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1990. – 528 b.
3. O'zbek tili frazeologik lug'ati [Matn] : lug'at / Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O'razova, K.Rixsiyeva. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyat matbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 bet.